

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI OTA DISKURSIDA NUTQIY ETIKETLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI (“Cho‘qintirgan ota” va
“Shaytanat” asarlari asosida)**

**English - Linguocultural Features of Speech Etiquette in the Father’s Discourse of
English and Uzbek Languages (Based on “The Godfather” and “Shaytanat”)**

**Russian - Лингвокультурологические особенности речевого этикета в
отцовском дискурсе английского и узбекского языков (на основе произведений
«Крестный отец» и «Шайтанат»)**

UDK 821.512.133.09-31+821.111.09-31

Ozotov Akbarjon Odiljon o‘g‘li

Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Tel: (33) 180 77 11

N.S.G‘ulomova

taqrizi ostida, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v/b., f.f.d.

E-mail: nargizagulomova099@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida “ota” diskursida qo‘llaniladigan nutqiy etiket vositalarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot asosida Mario Puzoning “Cho‘qintirgan ota” hamda Tohir Malikning “Shaytanat” asarlaridagi “ota” obrazlari lingvistik va madaniy kontekstda qiyosiy tahlil etilib, har ikki xalqning nutqiy muomala madaniyati, til vositalarida aks etgan ijtimoiy qadriyatlari hamda madaniyati yoritilgan. Bunday tahlillar orqali ikki milliy etiketga ega

bo‘lgan xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini, qolaversa, yozuvchilarning idiositilini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, nutqiy etiket, ota obrazi, madaniy fenomen, diskurs, qiyosiy tahlil, muomala madaniyati.

Abstract: This article analyzes the linguoculturological features of speech etiquette means used in the “father” discourse in English and Uzbek languages. Based on the research, the “father” images in Mario Puzo’s “The Godfather” and Tahir Malik’s “Shaytanat” are comparatively analyzed in a linguistic and cultural context, highlighting the speech communication culture, social values reflected in language tools, and culture of both nations. Through such analyses, it is possible to identify the unique values of two national etiquettes, as well as the idiositil of the writers.

Keywords: linguoculturology, speech etiquette, father image, cultural phenomenon, discourse, comparative analysis, communication culture.

Аннотация: В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности средств речевого этикета, используемых в дискурсе «отец» в английском и узбекском языках. На основе исследования проводится сравнительный анализ образов «отца» в произведениях Марио Пьюзо «Крестный отец» и Тахира Малика «Шайтанат» в лингвистическом и культурном контексте, освещаются культура речевого общения, социальные ценности, отраженные в языковых средствах, и культура обоих народов. Посредством такого анализа можно выявить уникальные ценности двух национальных этикетов, а также идиостиль писателей.

Ключевые слова: лингвокультурология, речевой этикет, образ отца, культурный феномен, дискурс, сравнительный анализ, культура общения.

Kirish. Hozirgi kunda yangi bir tilni o‘rganish, uni amaliyotda qo‘llash va madaniyatlararo aloqa o‘rnatish dolzarb va keng ko‘lamli ijtimoiy-madaniy ehtiyojga

aylangan. Globalizatsiya tillararo va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning kuchaytirishi bilan bir qatorda, nutq madaniyati va xulq-atvor qoidalarining lingvokulturologik tahlilini ham alohida mavzu darajasiga ko'tardi. Til nafaqat so'zlashuv muloqot vositasi, balki u har bir xalqning madaniyati, urf-odatlarini ijtimoiy-madaniy hayoti va qadriyatlari aks ettiruvchi madaniy fenomen hisoblanadi. Madaniy fenomen esa o'z navbatida o'sha xalqning nutqiy etiketida o'z ifodasini topadi. Nutqiy etiket – bu xatti-harakatlar odobini og'zaki ifodalovchi, ziddiyatli bo'lmagan, “kishilarga normal munosabatni, ya'ni xayrixoh munosabatni” ifodalash uchun har bir jamiyatda to'plangan til vositalarini beradigan til va nutq birliklarining katta zaxirasidir [5]. U shaxslar muloqoti o'rtasidagi hurmat, bo'ysunuv, samimiyat, qahr, aldov, salomlashish, murojaat, kechirim so'rash, minnatdorchilik bildirish kabi munosabatlarni ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash joizki, har bir xalqning o'ziga xos nutqiy etiketi mavjud. u o'sha xalqning yillar davomidagi tarixiy taraqqiyoti, va madaniy tuzilmasi, milliy qadriyatlari va merosi sifatida shakllanadi. Masalan, sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqida nutqiy muloqotda hurmat, kamtarlik, ehtirom va yoshi katta kishilarga nisbatan alohida muomala ko'rsatish tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar til vositalarida, ayniqsa, murojaat shakllari, salomlashuv, minnatdorchilik va kechirim so'rash kabi nutqiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ijtimoiy va mafkuraviy tushunchalarni jamlovchi rollarda, misol uchun “ota” obrazida nutqiy etiket o'zini otaga nisbatan murojaat qilish, unga nisbatan ehtirom bildirish, unga qarata aytiladigan gaplarning intonatsion, leksik va pragmatik jihatlari kabi madaniy normalarda yaqqol namoyon etadi. Shuni ta'kidlash joizki, har bir xalqning o'ziga xos nutqiy etiketi mavjud. u o'sha xalqning yillar davomidagi tarixiy taraqqiyoti va madaniy tuzilmasi, milliy qadriyatlari va merosi sifatida shakllanadi. Masalan, sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqida nutqiy muloqotda hurmat, kamtarlik, ehtirom va yoshi katta kishilarga nisbatan alohida muomala ko'rsatish tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar til vositalarida, ayniqsa, murojaat shakllari, salomlashuv, minnatdorchilik va kechirim so'rash kabi nutqiy faoliyatda namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ota diskursi – bu jamiyatda nafaqat otaning tutgan o‘rni balki xalqning axloqiy qadriyatlari, mentaliteti va tarbiyaviy qarashlarini ham ifodalaydi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ingliz va o‘zbek madaniyatlarida “ota” obrazining nutqiy etiketda namoyon bo‘lishi turlicha talqin etiladi. Ingliz madaniyatida ota ko‘proq individualizm va psixologik yaqinlik timsoli bo‘lsa, o‘zbek jamiyatida bu obraz hurmat, mas’uliyat va tarbiya ramzidir. Ushbu maqolada tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o‘zbek adabiyoti namunalari, jumladan, Mario Puzoning **“Cho‘qintirgan ota”** va Tohir Malikning **“Shaytanat”** asarlari namuna sifatida tanlandi. Ushbu ikki asar o‘ziga xos uslubiy va mazmuniy xususiyatlari bilan ajralib turadi va biz bu asarlardan foydalanish orqali ikki xil til va madaniyat muhitida shakllangan ota obrazining nutqiy etiketdagi lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilamiz. Qiyosiy-tahliliy o‘rganish orqali biz aniqlashimiz mumkinki G‘arb va Sharq madaniy kontekstida shakllangan mualliflik pozitsiyasi va otalik timsoli orqali jamiyatdagi axloqiy me‘yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va shaxslararo munosabatlar nutqiy etiketda juda ham turlicha natijalarni ko‘rsatadi. Har ikki asarda ham ota obrazi markaziy g‘oya va voqealar rivojining bosh yetaklovchi kuchi sifatida tasvirlanadi. “Cho‘qintirgan ota” romanida Don Vito Korleone obrazi mafiyaviy tizim ichida shakllangan patriarxal, ya’ni kuchli otalik modelini ifodalasa, “Shaytanat” romanida esa Asadbek obrazida o‘zbek jamiyatining an’anaviy axloqiy qarashlari, o‘sha davr muhitidagi ota obrazi va real hayotdagi murakkabliklarni ko‘rsatib beradi. Har ikki asarda “ota” obrazining nutqi, ya’ni qahramonlar tomonidan ishlatilgan so‘zlar, iboralar, muomala shakllari – ularning shaxsiyati, ijtimoiy mavqei, shuningdek, madaniy identitetini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Asarlarni o‘qish jarayonida kuzatish mumkinki, Don Korleone boshqalarga murojaat qilganda kuchli talablar va aniq buyruqlar bilan ish yuritisa [3], Asadbek obrazida ko‘proq maslahatlashuv, kinoyaviy murojaat, urf-odatlarga tayangan dialoglar uchraydi. Bu badiiy tahlilda sharq va g‘arb nutqiy etiketining madaniy normalarini namoyon etadi. Bu yondashuv lingvokulturologik, pragmalingvistik va diskursiv tahlil metodlari asosida olib borilganda, albatta o‘quvchilar, tadqiqotchilar va

tarjimonlar uchun foydali bo'lgan ikki madaniyat o'rtasidagi til vositalari bilan bog'liq nozik farqlarni tushunishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalarni chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar. Har qanday jamiyatda nutqiy muomala madaniyati xalqning tarixiy taraqqiyotini, madaniy tafakkurini, axloqiy me'yorlari va urf-odatlarini o'zida namoyon etadi. Ayniqsa, biz tadqiqotimiz asosi sifatida tanlagan “ota” diskursi ijtimoiy tomondan muhim va ramziy obrazga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllari, masalan, murojaatlar va hurmat ifodalari har bir xalq madaniyatida o'ziga xos nutqiy vositalar orqali aks etadi. Shu sababli biz yuqorida tilga olgan nutqiy etiket vositalari nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki lingvokulturologik yondashuv bilan ham chuqur tahlil etilishi lozim. Chunki bu vositalar ortida har bir xalqning ma'naviy qadriyatlari, tarixiy tafakkur shakllari va ijtimoiy munosabatlari mujassamlashadi. Nutqiy etiket insonlar o'rtasidagi salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, iltimos etish kabi muloqot shakllarida ko'rinar ekan, har bir til va madaniyatda ular o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega va ayni paytda jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy qadriyatlar va odob-axloq me'yorlarini ham aks ettiradi. Til faqat grammatik qurilma emas, balki milliy mentalitetning aksidir. Lingvokulturologiya – til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, u til birliklarini xalqning tafakkuri, urf-odati, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ongini ifoda etuvchi fenomen sifatida tahlil qiladi. Ayniqsa, “ota” kabi obrazlarda nutqiy etiket vositalarining ishlatilishini o'rganish, xalqning ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimini ochib beradi. Mario Puzoning mashhur romanida Don Vito Korleone mafiya hisoblanib ushbu tizimda to'liq hokimiyatni qo'lga kiritgan shaxs sifatida tasvirlangan va u ushbu asarda bosh obrazda turadi. U o'z oilasidagi va o'sha davr jamiyatidagi iyerarxiyada “ota” obrazini egallab, kuch, izzat va ehtiyotkorlik timsoli hisoblanadi. Uning muloqotidagi nutqiy etiketlar hurmat, sadoqat, ba'zan esa qo'rquv bilan tasvirlangan bo'lib, bu G'arb madaniyatidagi “ota” obrazining ijtimoiy maqomini ko'rsatib beradi. Romandagi ba'zi iboralarni bunga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

1-jadval. “Cho'qintirgan ota” romanida “ota” obrazi bilan bog'liq leksik birliklar.

Inglizcha ma’nosi	O‘zbekcha izohi
With all due respect, Godfather	Barcha hurmatim bilan
It’s an honor to be her	Bu yerda bo‘lish men uchun sharaf
I beg for your forgiveness	Sizdan uzr so‘rayman
I’ll do as you say	Siz aytgandek qilaman

Bu iboralarining semantikasiga ya’ni ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu yerda ruxsat so‘rash, hurmat izhor qilish, hokimiyatni tan olish kabi kommunikativ gaplar mavjud bo‘lib, ular orqali Don Korleonega bo‘lgan sadoqat va itoat ifodalanadi. Ingliz tilidagi nutqiy etiketlarda muomala rasmiyligi, shaxsiy masofaning saqlanishi va individualizm asosiy o‘rinda turadi. Shu bilan bir qatorda, Don Korleone obrazida hissiy aloqa, ya’ni oila va do‘stlar bilan mehrga asoslangan, ammo o‘z chegarasidan chiqmaydigan muloqot ham mavjud va bu G‘arb jamiyatidagi otalik obrazining hokimiyat ya’ni rahbarlikni qo‘lga olish va hissiyot o‘rtasidagi muvozanatni namoyon etadi.

Tohir Malikning “Shaytanat” romanida esa biz Asadbek obrazini bosh o‘ringa qo‘yamiz. Faqat bu asar Mario Puzoning asaridan farqli o‘zbek jamiyatidagi mafiyaviy tuzumni va uning ichida kuchli, lekin o‘z qadriyatlariga sodiq, xalqona, aqlli rahbar sifatida namoyon bo‘ladigan, o‘z o‘rnida kinoya, o‘z o‘rnida jiddiylik va samimiylilikni uyg‘unlashtiradigan Asadbek obrazini “Ota” sifatida namoyon etadi. Unga nisbatan ishlatilgan nutqiy etiket vositalari o‘zbek xalqining hurmat, itoat, duo, kamtarlik va izzat kabi qadriyatlarini aks ettiradi ega [1]. Bu asarda ham uchraydigan yozuvchining o‘ziga xos uslubini aniqlovchi leksik birliklarni ko‘rishimiz mumkin:

2-jadval. “Shaytanat” romanida “ota” obrazi bilan bog‘liq leksik birliklar:

- 1.Ota, siz ayting, biz qilamiz.

- 2.Buyruq bering, Oppoqdado.

3. Kechirasiz, biz adashdik, aka.

- 4.Alloh umrizi bersin, sizday odam kam bo‘ladi.


1-chizma. “Shaytanat” romanida “ota” obrazi bilan bog‘liq leksik birliklar.

Bu leksik birliklarda kattalarga murojaat qilish, duo qilish, avtoritetni tan olish va kamtarlik kabi nutqiy va madaniy normalar mujassam. O‘zbek madaniyatida “ota” obrazi faqat biologik ota emas, balki yosh jihatidan katta, dono, mas’uliyatli va hurmatga sazovor shaxs degan keng ma’noga ega [4]. Nutqiy etiket vositalari orqali bu obrazning ijtimoiy va axloqiy vazifasi til darajasida aks ettiriladi. Shuningdek, o‘zbek muloqot madaniyatida duo bilan boshlanuvchi yoki tugovchi iboralar, kichiklashtirish orqali hurmat ifodasi, sukut bilan murojaat qilish kabi noverbal va tilga asoslangan etik normalar keng qo‘llaniladi. Bu esa o‘zbek tilining nutqiy etiket tizimida hissiylik, murakkablik va ko‘p qavatlilik mavjudligini ko‘rsatadi. Har ikki asarda ham ko‘rishimiz mumkinki, “ota” obrazi jamiyatda markaziy o‘ringa ega bo‘lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Biroq bu obraz, maqomga nisbatan qo‘llaniladigan lingvistik munosabat, ya’ni unga ishlatiladigan nutqiy etiketlar har bir madaniyatda turlicha shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. G‘arb madaniyatida nutqiy etiket vositalari ko‘proq formalizm, individualizm va yuridik iyerarxiya asosida shakllanadi. Sharq madaniyatida esa bu vositalar mentalitet, urug‘chilik, hurmat-izzatga asoslangan ijtimoiy tuzilma orqali belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida tadqiqotimizni tahlil qilib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbek va ingliz tillarida “ota” diskursi bu ikki tilda ishlatiladigan nutqiy etiketlarning lingvokulturologik jihatdan farqlanishini, turlicha ekanligini va o‘ziga xos semantik, pragmatik va madaniy tomonlarga ega ekanligini ko‘rsatar ekan. Har ikki xalqning

ijtimoiy qadriyatlari hamda **muomala me'yorlari** asarlarda o'zining tili orqali namoyon bo'ldi va har ikki xalqda "ota" obrazining diskursi yuzasidan tahlil bo'ldi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz tilidagi "ota" obraziga nisbatan ishlatiladigan nutqiy vositalar ko'proq **rasmiylik, ijtimoiy maqomni tan olish, masofa** va **individual hurmat** tamoyillarini ko'rsatdi. Bunda otaga nisbatan muloqotda emotsional ya'ni hissiy ifoda cheklanganligini ko'rishimiz mumkin. Aksincha, o'zbek tilidagi asar orqali esa biz nutqiy etiketlarda **hissiylik, ehtirom, izzat, duo** va **xushmuomalalik**ning ustunligini ko'rdik. O'zbek madaniyatida "ota" tushunchasi nafaqat biologik yoki ijtimoiy rolni, balki **axloqiy yetakchilik, dono rahbarlik** va **ma'naviy mas'uliyat** timsolini ham namoyon etadi. Bu holat "Shaytanat" romanidagi Asadbek obrazida yaqqol ko'zga tashlanadi "Cho'qintirgan ota" romanida esa Don Korleone obrazining nutqiy ifodalanishida **kuch, hokimiyat, tashqi salobat** va **ichki sovuqqonlik** yaqqol seziladi [2]. Bu esa G'arb madaniyatida otaning hokim shaxs, tartib saqllovchi va murosasiz rahbar sifatida talqin etilishini ko'rsatadi. Shu orqali, nutqiy etiketlar nafaqat til hodisasi, balki **madaniy va ijtimoiy fenomen** sifatida har bir jamiyatning **tarixiy, diniy, falsafiy va axloqiy asoslariga** tayangan holda shakllanishini ko'rsatadi. Ular til orqali xalqning **mentaliteti, ijtimoiy maqomi** va **muloqot psixologiyasi** haqida chuqur tasavvurni hosil qiloladi.

Ushbu tadqiqot til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berish bilan birga, lingvokulturologik yondashuv asosida **nutqiy etiketlarning qiyosiy tahliliga** yangi ilmiy nuqtayi nazar bilan yondashish imkoniyatini beradi [6]. Tadqiqot natijalari, shuningdek, madaniyatlararo muloqot, tarjima nazariyasi, til o'rgatish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish kabi sohalarda ham amaliy ahamiyati muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent: Sharq, 5 jild. 2013.
2. Chappetta R. The Godfather. *Film Quarterly*. № 25 (4), 1972.
3. Mario Pyuzo. Cho'qintirgan ota. – Adashbiyev T., O'rinboyev M. tarjimasi. – Toshkent: Yashlar matbuoti, 2023. – 416 b.

4. G‘ayibov X. Tohir Malikning “Shaytanat” romani qahramonlari tahlili va jamiyatga ta’siri. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, 2022. – B. 102-104.
5. Ibragimova, C.R. *Madaniy identifikatsiya va uning globallashuv sharoitidagi o‘zgarishlari*. – Toshkent, 2025. – B. 72-78.
6. Yusupova, G.A. *Tilshunoslikda nutqiy etiketning tasnifi*. – Toshkent, 2025. – 66-71.